

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Texnika fakulteti**  
**Kimyo kafedrasi**  
**5140500-kimyo ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi**

**Chorshanbiyeva Ma`rifat Jumayevnaning**

**«Tuzlar gidrolizi» mavzusini  
innovatsion – pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish**

5140500 – Kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Himoyaga tavsiya etiladi”**

**Ilmiy rahbar:**

“Kimyo” kafedrasi  
mudiri, k.f.n., dots. Aliqulov R.V.

Ilmiy rahbar:  
k.o'q. Alimnazarov B.X

**TERMIZ-2017**

<b>Nº</b>	<b>Mundarija</b>	<b>Bet</b>
	<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
I-bob	<b>Adabiyotlar tahlili.....</b>	<b>8</b>
I.1	<b>Tuzlar gidrolizi.....</b>	<b>8</b>
I.2	<b>Ta’limni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning mohiyati va muammolari.....</b>	<b>22</b>
I.3	<b>Ilg’or pedagogik texnologiyalarning nazariy va pedagogik asoslari .....</b>	<b>24</b>
I.4	<b>Asosiy pedagogik texnologiya usullari .....</b>	<b>29</b>
I.5.	<b>Ta’lim o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi.....</b>	<b>45</b>
II-bob	<b>Tajribaviy qism .....</b>	<b>49</b>
II.1	<b>Modulli ta’lim texnologiyasi.....</b>	<b>49</b>
II.2	<b>Keys-stadi ta’lim texnologiyasi .....</b>	<b>53</b>
II.3	<b>Grafikli organayzerlar.....</b>	<b>58</b>
III-bob	<b>Tajriba natijalari va ularning taxlili.....</b>	<b>63</b>
III.1	<b>An’anaviy usulda dars o’tish natijalari taxlili.....</b>	<b>63</b>
III.2	<b>Noan’anaviy usulda dars o’tish natijalari taxlili.....</b>	<b>64</b>
IV	<b>Xulosa.....</b>	<b>66</b>
V	<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati.....</b>	<b>67</b>

«Tarbiyachi ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql idrokini o‘sirishi, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, huquqiy fuqaro etib etishtirish uchun eng avvalo, tarbiyachining o‘zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak»

I.A.Karimov

## KIRISH

Respublikamizda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar yangi o‘quv fanlarini kiritishda yangi ta’lim standartlarini ishlab chiqish ehtiyojinigina emas, balki o‘qitish metodikasini o‘zgartirishni ham talab qiladi. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo‘yilgan barkamol avlod tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish jarayonida tayyorlanayotgan kadrlarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda .

Ta’lim jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning interfaol usullaridan foydalananib tashkil etilsa, o‘quvchi-talabalarning mashg‘ulot davomida faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni echimini eng maqbulligini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilish yanada oshadi.

O‘quv mashg‘ulotlarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika, texnologiyaning yutuqlari, respublikada joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashi, oliy ta’limda uzluksiz o‘qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiyligka o‘tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishni amalga oshirilmoqda. Bunda ta’lim-tarbiya tizimi ham tubdan isloh etilmoqda.

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi” – deb ta’kidalanadi Respublikamiz birinchi Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch asarida”. “Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”. Demokratik jamiyat qurishni va uning taraqqiyotini ta’lim va tarbiya sohasisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Bu ta’lim-tarbiya sohasini milliy madaniy meros va umumiyligi e’tirof etilgan demokratik prinsiplarga asoslanishi bilan bog‘liq. Shu ma’noda bu sohada chuqur islohatlar amalga oshirildi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash borasidagi islohotlarni amalga oshirishning nazariy-amaliy asosini tashkil qilib, kelgusida ta’limni yanada rivojlantirishning istiqbollarini belgilovchi tarixiy ahamiyatga molik hujjatdir. Bu hujjatlarda vatanimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarni voyaga etkazish, ulardagi mavjud iste’dod va iqtidorni namoyon etishlariga alohida e’tibor berilgan, mamlakatimiz ta’lim tizimini isloh qilishning asoslari, tamoyillari va bosqichlarini belgilangan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarida ta’kidlaganidek, “Bugungi murakkab va shiddatli XXI asrda har birimiz, butun xalqimiz yosh avlod tarbiyasi har qachongidan ham jiddiy e’tibor qaratishimizni hayotning o’zi barchamizdan talab etmoqda”.

Farzandlarimiz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, sog’lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun xech qachon o’zining dolzarbligini yo’qotmaydigan masala hisoblanadi.

**O‘qitishda modulli yondashuvning dolzarbliyi.** O‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi eng asosiy manba hisoblanadi. O‘qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o‘quv

maqsadlariga erishiladi. O‘quv jarayoninig maqsadi uning zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishdir. O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanib tashkil etilsa, o‘quvchi-talabalarning mashg‘ulot davomida faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni echimini eng maqbulligini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilish yanada oshadi.

Modul - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo‘lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo‘lgan birlikdir. Modulni o‘rganish natijasida qanday bilimlarni egallashi, qanaday ko‘nikma va malakalar shakllantirilishi sanab o‘tiladi. O‘zlashtirish jarayoni tugagandan so‘ng talaba qanday faoliyatni qanday sharoitlarda bajara olishi ko‘rsatiladi. Natijalar uzviy birlikka ega bo‘lib, o‘qitish maqsadlaridan chetga chiqmagan holda shakllantirilishi lozim.

Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish, o‘zlashtirish bo‘yicha samarali natijani ta’minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo‘lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadga yo‘naltirilgan bog‘lamki, u o‘zida o‘rganiladigan mazmunni va uni o‘zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

Modulli texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etish jarayonida talabaning qobiliyatları, ehtiyojlari va o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish lozim. Ana shu elementlar hisobga olingan taqdirda o‘z-o‘zidan tabaqlashtirilgan, rivojlantiruvchi, o‘qishga bo‘lgan motivlarni kuchaytiruvchi “subekt-subekt” konsepsiyasiga asoslangan ta’lim tizimi kelib chiqadi.

Modulli o‘qitishda o‘quvchilarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi uchun to‘la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

**Ishning maqsad va vazifalari:** mavzuni o‘qitishda yangi interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilar bilim saviyasini oshirish; o‘quv mashg‘ulotining loyihasini ishlab chiqish; o‘quv mashg‘ulotida hal etilishi lozim

bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash; o‘quv mashg‘uloti mazmunini ishlab chiqish; o‘quv mashg‘uloti samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi usul hamda texnik vositalarni tanlash; o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish; o‘quv mashg‘ulotida o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning faol bilim olishlarini tashkil etish va ta`lim tizimining demokratik tamoyillariga tobora keng yo`l ochib berish amaliy ahamiyatga egadir. Ta`lim jarayonida qo’llaniladigan interfaol usullarni aniqlash uchun men mavjud adabiyotlardan va ko’plab internet ma’lumotlaridan fo’ydalandim. Internetdan olingan ma’lumotlar o’zbek tiliga tarjima qilindi va adabiyotlar sharxida keltirildi. Tuzlar gidrolizi mavzusini o’qitish jarayonida turli interfaol usullarni qo’llashni tahlil qildim va shu usullar bo‘yicha maktabda dars o’tdim.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari:** Mazkur bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi kimyo fanlarini o’qitishda turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini tahlil qilish, ularni optimal variantini tanlab olish va bu pedagogik texnologiyalarning tuzlar gidrolizi mavzusida dars o’tishda interfaol usullardan foydalanib dars o’tib, uning innovatsion o’rnini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etildi.

1. Ta`lim tizimidagi interfaol usullar bo‘yicha ma’lumotlarni to’plash va tahlil qilish.
2. Tuzlar gidrolizi mavzusini o’qitish uchun modul ta`lim texnologiyasini yaratish.  
ta`lim texnologiyasini yaratish.
4. Tuzlar gidrolizi mavzusini o’qitish uchun “SWOT-tahlil”, “Xulosalash” (Rezyume, Veer) grafikli organayzerlari yaratish.
5. “Tushunchalar tahlili”, Venn diagrammasini tuzish grafikli organayzerlari yaratish.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti:** Mazkur tadqiqotning ob'ekti kimyo o'qitish metodikasi. Ilg'or pedagogik interfaol usullar va kimyoni o'qitishda foydalanish mumkin bo`lgan informatsion texnologiyalardir va bu usullarni tuzlar gidrolizi mavzusini o'qitishda qo'llanilishi tadqiqotning predmetini belgilaydi.

**BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati:** pedagogik texnologiya asosida dars o'tish bugungi kunning muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylanishiga, bilimlarining to'liq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Shuning uchun tuzlar gidrolizi mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish ta'lim jarayonida ilmiy ahamiyatga egadir.

**BMIning tarkibiy tuzilishi:** BMI kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adaniyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Uning umumiyligi 68 bet. Unda foydalanilgan adabiyotlar keltirilgan

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

## I.Adabiyotlar tahlili.

### I.1. TUZLAR GIDROLIZI.



#### Reja:

1. Gidroliz haqida tushuncha.
2. Gidroliz mexanizmi.
3. Gidrolizlanmaydigan tuzlar.
4. Kation, anion va kation-anion bo‘yicha gidrolizlanish.
5. Gidroliz darajasi va doimiysi.

#### 1. Gidroliz haqida tushuncha.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ionlar (yoki elektrolitlar) ishtrokipda boruvchi almashinish reaksiyalari tuzlari suvda (yoki boshqa erituvchilarda) eriganda ham ruy beradi. Bu reaksiyalarda suv molekulalari ta’sirida tuz (yoki elektrolit)ning tarkibiy qismlari o‘zaro almashinadi va avvalgiga nisbatan kuchsiz elektrolit (kislota yoki asos) hosil bo‘ladi. Bu xodisaga gidroliz deb aytildi. Agar erituvchi suvdan boshqa modda (spirt, benzol, atseton, ammiak ...) bo‘lsa, bunday reaksiyalar solvoliz deyiladi.

Gidroliz reaksiyalarini quyidagicha umumiy tenglama bilan ifodalash mumkin:



Tenglamadan ko‘rinib turibdiki suvda tuz eriganda gidroliz reaksiyasi natijasida eritmadi OH<sup>-</sup> va H<sup>+</sup> ionlarining miqdori keskin o‘zgaradi. Aniqrog‘i gidroliz natijasida eritmaning pH – i o‘zgaradi va bu o‘zgarish xar qanday tuz gidrolizining mexanizmini tushunishda, gidroliz tenglamasini tuzishda, gidroliz reaksiyalaridan amaliyotda foydalanishda asosiy ko‘rsatgich hisoblanadi.

## 2. Gidroliz mexanizmi.

Tuzlar gidrolizining mexanizmi tuz tarkibiga kirgan metall kationi va kislota qoldig‘i - anionning tabiatiga, aniqrog‘i, qutblanuvchanligi (polyarizatsiyasi) ga bog‘liq. Agar ion qanchalik kuchli qutblansa (qutblangan bo‘lsa) gidroliz shunchalik tez va to‘liq boradi. Umuman  $\text{Kat}^{+n}$  va  $\text{An}^{-m}$  lar ishtirokida gidroliz borish jarayoni mexanizmlarini quyidagicha tasavvur etish mumkin.


I. Ma’lumki, xar qanday kation suvli eritmada donor-akseptor ta’siri tufayli gidratlangan xolda. ya’ni akvokompleks  $[\text{Kat}(\text{H}_2\text{O})_n]^m$  xolida bo‘ladi. Bu kompleksdagi kationning zaryadi qanchalik katta va radiusi qanchalik kichik bo‘lsa uning akseptorlik kuchi shunchalik katta, ya’ni  $\text{Kat} \dots \text{OH}_2$  bog‘i barqaror bo‘ladi. Bunday kompleks tarkibidagi O - H bog‘i kuchli qutblanuvchanlik xossasiga egadir. Shu sababli "gidrat qobig‘ida" gi ( $\text{Kat}^*\text{H}_2\text{O} \dots \text{H}_2\text{O}$ ) suv molekulalari o‘rtasidagi vodorod bog‘lanish kuchli bo‘ladi. Bunday o‘zaro ta’sirlashuv natijasida kation bilan bevosita bog‘langan suv molekulasidagi O - H bog‘i kuchsizlanib  $[\text{Kat}^*\text{HO}^- \text{---H}^+ \dots \text{H}_2\text{O}]$ , vodorod atomi sekinlik bilan ajraladi va "gidrat qobiq" dagi suv molekulasi bilan birikib  $\text{H}_3\text{O}^+$  gidroksoniy ionini hosil qiladi, Kation esa  $\text{OH}^-$  guruh bilan kuchliroq kimyoviy bog‘ hosil qilib  $\text{Kat}(\text{OH})_n$  asosga aylanadi.

Ajralib chiqadigan  $\text{H}_3\text{O}^+$  - ionlari eritmadiagi  $[\text{H}^+] = [\text{OH}^-]$  muvozanatni buzib,  $[\text{H}^+] > [\text{OH}^-]$  bo‘lishiga, ya’ni eritmada kislotali muhit pH < 7 yuzaga kelishiga olib keladi.

Bu o‘zgarishlar asosan:  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Cd}^{2+}$ ,  $\text{Hg}^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$ ,  $\text{Sn}^{2+}$ ,  $\text{Sb}^{3+}$ ,  $\text{Bi}^{3+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari ishtirokida ro‘y beradi. Boshqacharoq aytganda, hosil bo‘ladigan asos  $\text{Kat}(\text{OH})_n$  qanchalik kuchsiz bo‘lsa gidroliz shunchalik oson va tez boradi.

II. Anionlar ham gidroliz reaksiyalari borishida ishtirok etadi. Aksariyat anionlar (kislородли  $\text{EO}_x^{-m}$  va kislородсиз  $\text{E}^{-m}$ ) eritmada suv molekulalari bilan vodorod bog‘lanish tufayli gidratlangan xolda bo‘ladilar:  $\text{E}^{-m} \dots \text{H-O-H}$  yoki  $\text{EO}_x^{-m} \dots \text{H}_2\text{O}$ ). Bu ionlardagi anion bilan suv molekulalari o‘zaro qutbli (polyarizatsion) ta’sir tufayli " $\text{An}^{-m} \dots \text{H}_2\text{O}$ " vodorod bog‘i kuchayib, kovalent

bog‘lanishga o‘tadi va anion o‘ziga  $H^+$  - ionini biriktirib oladi (kuchsiz kislota  $HAn \longleftrightarrow HE$  yoki  $HEO_x$  hosil bo‘ladi), eritmaga  $OH^-$  ionlari ajralib chiqadi:



Reaksiya natijasida suvli eritmadagi  $[H^+] = [OH^-]$  muvozanat buzilib  $[H^+] < [OH^-]$  bo‘ladi, eritmaning muhiti ( $pH > 7$ ) ishqoriy bo‘ladi. Suv bilan gidroliz reaksiyasiga kuchsiz kislotalar tarkibiga kiruvchi kislota qoldiqlari - anionlar :  $F^-$ ,  $S^{2-}$   $CN^-$ ,  $CH_3COO^-$ ,  $HCOO^-$ ,  $NO_2^-$ ,  $CO_3^{2-}$ ,  $SO_3^{2-}$ ,  $ClO^-$ ,  $PO_4^{3-}$ ,  $SiO_3^{2-}$  kirishadi.

### 3. Gidrolizlanmaydigan tuzlar.

Aksariyat tuzlar tarkibiga  $Na^+$ ,  $K^+$ ,  $Ca^{+2}$ ,  $Ba^{+2}$  kationlari va  $Cl^-$ ,  $Ba^-$ ,  $I^-$ ,  $NO_3^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ,  $ClO_4^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ,  $SiF_6^{2-}$  kabi anionlar kiradi. Bu ionlar suv molekulalari bilan ta’sirlashganda  $H_2O$  -molekulalarini  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari xoligacha parchalay olmaydilar. Chunki, bu ionlarning radiusi katta va zaryadi kichik bo‘lgani uchun qutblovchanlik xossasi (kuchi) suv molekulasini "parchalash" ga etmaydi. Boshqacharoq aytganda bu ionlar birgalikda hosil qilgan tuzlar mutlaqo gidrolizlanmaydi. Bu tuzlarning eritmada  $[H^+] = [OH^-]$  muvozanatni o‘ng yoki chap tomonga siljita olmagani uchun pH o‘zgarmaydi.


#### Kation, anion va kation-anion bo‘yicha gidrolizlanish.

Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi tuzlarning gidroliz reaksiyalari va ularning tenglamalarini tuzish bilan tanishib chiqaylik.


Ma’lumki, tuz - kislota bilan asosning o‘zaro ta’sir mahsulotidir. Shuning uchun tuzlarning gidroliz tenglamalarini tuzishda ularning qanday kislota va qanday asosdan hosil bo‘lganligiga e’tibor berish kerak.

1. Kuchli asos ( $LiOH$  ,  $NaOH$ ,  $KOH$  ,  $Ca(OH)_2$ ,  $Ba(OH)_2$ ,  $RbOH$  ,  $Ca(OH)_2$ ) va kuchsiz kislota ( $HCN$  ,  $H_2S$  ,  $HNO_2$ ,  $H_2SO_3$ ,  $H_3PO_4$ ,  $H_2CO_3$ ,  $H_2SiO_3$ ,  $HF$ ,  $CH_3COOH$  ,  $HCOOH$ ) dan hosil bo‘lgan tuzlarning gidrolizi. Bu tuzlar tarkibidagi metall kationlari kam qutblanuvchan bo‘lgani uchun ular suv molekulalari bilan ta’sirlashmaydi. Anionlarning qutblanuvchanligi yuqori bo‘lgani uchun ular

gidrolizda ishtirok etadilar. Bunday tuzlarning gidroliz tenglamasini shunday tasavvur etish mumkin:




Agar aniq misolda ko‘radigan bo‘lsak:



Soda -  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  suvda eriganda gidrolizlanib, bu gidroliz amalda oxirigacha bormaydi, birinchi bosqichda deyarli tuxtaydi. Agar eritma qizdirilsa, II bosqichi boradi va ikkala xolda ham eritma ishqoriy muhitga ega bo‘ladi. ( $\text{pH} > 7$ )

I bosqichning ionli tenglamasi:



Qisqa ionli tenglamasi:




Oxirgi tenglamadan ko‘rinib turibdiki, kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo‘lgan tuzning gidrolizi anion bo‘yicha gidroliz bo‘lib, kation gidrolizlanmaydi. Bunday gidrolizni eritmaga kislota qo‘shib kuchaytirish, ishqor qo‘shib sekinlashtirish mumkin. Temperaturaning ortishi va eritmaning suyultirilishi muvozanatni o‘ngga siljitadi, ya’ni gidrolizni to‘liq oxirigacha borishiga olib keladi. Bu tuzlarning eritmalari doimo ishqoriy muhitli bo‘ladi.

2. Kuchsiz asos ( $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{Mg}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Fe}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Fe}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Co}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Ni}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Cr}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Mn}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Zn}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Pb}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Sn}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Sb}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Bi}(\text{OH})_3$ ) va kuchli kislotalar ( $\text{HCl}$ ,  $\text{HBr}$ ,  $\text{HI}$ ,  $\text{HClO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_3$ ) dan hosil bo‘lgan tuzlarning gidrolizi. Bu tuzlarning umumiy gidroliz tenglamasi:





Bunday tuz tarkibiga kirgan  $\text{An}^-$  - ning qutblanuvchanligi past bo‘lgani uchun suv molekulalari tarkibidagi vodorodni tortib ola olmaydi.  $\text{Kat}^+$  - ning qutblanuvchanligi yuqori bo‘lgani uchun suv molekulalari bilan ta’sirlashadi va


$\text{OH}^-$  ionlarini biriktirib oladi va eritmaga  $\text{H}^+$  ionlari ajralib chiqadi. Shuning uchun eritma ( $\text{pH} < 7$ ) kislotali muhitga ega bo‘ladi. Aniq misolda ko‘rib chiqamiz:



Ko‘p negizli tuzlar gidrolizlanganda II, III... bosqichlarning borish extimolligi kamayib boradi. Shunga asosan  $\text{FeCl}_3$  tuzi suvda eriganda III bosqich deyarli amalga oshmaydi. Agar III bosqich bo‘yicha gidroliz borganda edi,  $\text{FeCl}_3$  eritmasi tiniq sariq rangli bo‘lmasdan, balki qo‘ng‘ir rangli loyqa (zangli suv) ga aylanib qolar edi. Lekin  $\text{FeCl}_3$  eritmasi tiniq eritma. Demak, gidroliz I yoki II bosqich bo‘yicha boradi. Aytilganlarni e’tiborga olib I va II bosqich uchun ionli tenglamalarni tuzamiz: I bosqich uchun:




II bosqich uchun:




Alyuminiy nitrat tuzini gidrolizlanish reaksiyasini ham keltirish mumkin:



[dissolution and hydration]



[dissociation of weak acid]



Bunda alyuminiy ioni gideratlanib, suv bilan ta'sirlashishi natijasida gidroksoniy ioni hosil bo'lishi kuzatiladi.

Ionli tenglamalardan ko'rinib turibdiki, kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzning gidrolizi kation bo'yicha gidroliz bo'lib, bu tuz tarkibidagi anion gidrolizda ishtirok etmaydi, eritma kislotali muhitga ega bo'ladi,  $\text{pH} < 7$ . Bu gidrolizni to'liq oxirigacha etkazish uchun temperaturani oshirish, eritmani suyultirish yoki eritmaga bir oz ishqor qo'shish kerak. Gidrolizni tuxtatish uchun esa eritmaga kislota qo'shish zarur. Shu sababli  $\text{ZnSO}_4$ ,  $\text{SnCl}_2$  kabi tuzlarning eritmalarini tayyorlashda eritmaga mos ravishda  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HCl}$  eritmalari qo'shiladi va hosil bo'lgan oq rangli cho'kmalar eritib yuboriladi.

3. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar suvda eriganda kation ham, anion ham o'rtacha qutblanuvchan bo'lgani uchun ikkala ion ham gidrolizda ishtirok etadi. Gidrolizlanish mahsuloti sifatida kuchsiz asos (cho'kma) va kuchsiz kislota hosil bo'ladi.

Bunday gidroliz reaksiyasining umumiyligi tenglamasi:



Aniq misolda ko'rib chiqaylik:



$\text{2NH}_4^+ + \text{CO}_3^{2-} + 2\text{HOH} \longleftrightarrow 2\text{NH}_4\text{OH} + \text{H}_2\text{CO}_3$  Reaksiya tenglamalaridan ko'rinyaptiki, kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuz ham kation,


ham anion mexanizmi bo'yicha boradi. Odatda bunday tuzlarning gidrolizi to'liq oxirgacha boradi. Eritmaning muhiti hosil bo'lgan kislota va asosning  $K_{dis}$  - qiymatiga, ya'ni ularning qanchalik darajada dissotsiyalanishga bog'liq bo'ladi. Agar  $K_{dis.kisl} > K_{dis.asos}$ , bolsa eritma kislotali muhitga ( $pH < 7$ ),  $K_{dis.kisl} < K_{dis.asos}$ , bolsa eritma ishqoriy muhitga ( $pH > 7$ ) ega bo'ladi.

3 - turdag'i gidroliz reaksiyalari boshqa xollarda ham boradi. Agar kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan biror tuz eritmasi ikkinchi - kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuz eritmasi bilan aralashtirilsa ikkala tuz birgalikda gidrolizga uchraydi. Birgalikda gidroliz to'liq boradigan gidroliz bo'lib, uni quyidagi misolda ko'rib chiqaylik: Agar  $AlCl_3$  tuzi eritmasiga  $Na_2S$  eritmasi qo'shilsa, eritma tezda oq rangli loyqaga aylanib, qo'lansa hid chiqara boshlaydi.


Uning sababi  $AlCl_3$  va  $Na_2S$  birgalikda gidrolizlanib suvda yomon eriydigan  $Al(OH)_3$  va qo'lansa hidli  $H_2S$  - gazi hosil bo'ladi:




Reaksiyaning ionli tenglamasi:



Qisqa ionli tenglamasi:



Eritmaning muhiti yuqoridagi (3-tur) gidroliz reaksiyalardagi singari hosil bo'ladigan kislota yoki asosning kuchi bilan xarakterlanadi.



1-jadval. Kislota asoslari muvozanati o‘zgarishi jadvali.

Bu jadvalda muvozanatda turgan kislotaga va asoslarda gidrolizga uchrashi natijasida kuchli kislotaga kuchsiz asos, aksincha kuchsiz kislotaga kuchli asos to‘g‘ri kelishini ko‘rsatib o‘tilgan.

**Table 18.3 The Acid-Base Behavior of Salts in Water**

Relative Acidity: Examples	pH	Nature of Ions	Ion That Reacts with Water: Examples
Neutral: NaCl, KBr, Ba(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	7.0	Cation of strong base Anion of strong acid	None
Acidic: NH <sub>4</sub> Cl, NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> , CH <sub>3</sub> NH <sub>3</sub> Br	<7.0	Cation of weak base Anion of strong acid	Cation: $\text{NH}_4^+ + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{NH}_3 + \text{H}_3\text{O}^+$
Acidic: Al(NO <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> , CrBr <sub>3</sub> , FeCl <sub>3</sub>	<7.0	Small, highly charged cation Anion of strong acid	Cation: $\text{Al}(\text{H}_2\text{O})_6^{3+} + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{Al}(\text{H}_2\text{O})_5\text{OH}^{2+} + \text{H}_3\text{O}^+$
Acidic/Basic: NH <sub>4</sub> ClO <sub>2</sub> , NH <sub>4</sub> CN, Pb(CH <sub>3</sub> COO) <sub>2</sub>	<7.0 if $K_{a(\text{cation})} > K_{b(\text{anion})}$ >7.0 if $K_{b(\text{anion})} > K_{a(\text{cation})}$	Cation of weak base (or small, highly charged cation) Anion of weak acid	Cation and anion: $\text{CH}_3\text{NH}_3^+ + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{CH}_3\text{NH}_2 + \text{H}_3\text{O}^+$ $\text{F}^- + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{HF} + \text{OH}^-$
Acidic/Basic: NaH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> , KHCO <sub>3</sub> , NaHSO <sub>3</sub>	<7.0 if $K_{a(\text{anion})} > K_{b(\text{anion})}$ >7.0 if $K_{b(\text{anion})} > K_{a(\text{anion})}$	Cation of strong base Anion of polyprotic acid	Anion: $\text{HSO}_3^- + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{SO}_3^{2-} + \text{H}_3\text{O}^+$ $\text{HSO}_3^- + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{H}_2\text{SO}_3 + \text{OH}^-$

2-jadval. Asos va kislota kuchiga ko‘ra tuzlar gidrolizi va muhiti keltirilgan.

### Gidroliz darajasi va doimiysi.

Gidroliz reaksiyalarning aksariyati qaytar jarayon bo‘lgani uchun gidrolizni miqdoriy xarakteristikasi sifatida gidroliz darajasi – h – va gidroliz doimiysi – K<sub>gidr</sub>. tushunchalari kiritilgan.

Gidroliz darajasi - gidrolizlangan tuz miqdorining umumiy eritilgan tuz miqdoriga nisbati bo‘lib o‘lchov birligisiz (0-1) va foizlarda (0-100%) o‘lchanishi mumkin. h- ning qiymati tuzning tabiatiga, eritma konsentratsiyasi, temperaturasiga bog‘liq. h-ning qiymati gidroliz bosqichining tartibiga ham bog‘liq bo‘lib, bosqichning tartibi ortishi bilan h-ning qiymati kamayib boradi:

$$h_1 > h_2 > h_3 \dots > h_n$$

Gidroliz darajasi tuzning tabiatidan kelib chiqqan xolda quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$\text{a) kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuz uchun } h = \frac{C_{OH}^-}{C_{my3}}$$

Bunda  $C_{tuz}$  eritmadi tuzning konsentratsiyasi mol/l

$C_{OH}^-$  - tuz gidrolizlangandan keyin eritmada hosil bo'lgan  $OH^-$  - ionlarning konsentratsiyasi.  $C_{OH}^-$  qiymati miqdoran gidrolizlangan tuzning konsentratsiyasiga teng.

**b) kuchsiz asos va kuchli kilotadan hosil bo'lgan tuz uchun**

$$h = \frac{C_H^+}{C_{my3}}$$

Bunda  $C_{H^+}$  - tuz gidrolizlanganda eritmada  $C_{tuz}$  hosil bo'ladigan  $H^+$  - ionlarning konsentratsiyasi bo'lib, u miqdoran gidrolizlangan tuz miqdoriga teng.

Gidroliz doimiysi -  $K_{gidr.}$  ham tuzning tabiatiga bog'liq bo'lib, 1 - tur tuzlar (kuchli asos va kuchsiz kislota) uchun  $K_{gidr.}$  ni keltirib chiqaraylik:

$CH_3COONa + H_2O \longleftrightarrow CH_3COOH + NaOH$  tenglamaga mos keluvchi gidrolizga massalar ta'siri qonunini qo'llasak:

$$K_{eu\partial p.} = \frac{[CH_3COOH] \cdot [NaOH]}{[CH_3COONa] \cdot [H_2O]} \text{ bo'ladi. Bundan } NaOH \text{ eritmada}$$

$Na^+$  va  $OH^-$  ionlarini hosil qilgani uchun  $[NaOH] = [OH^-]$  bo'ladi.  $CH_3COONa$  - kuchli elektrolit bo'lgani uchun to'liq  $CH_3COO^-$  va  $Na^+$  ionlariga dissotsiyalanadi. Shu sababli eritmada  $[CH_3COONa] = [CH_3COO^-]$  bo'ladi. Eritmada suvning miqdori ko'p bo'lgan uchun  $[H_2O] = 1 \text{ mol/l} = \text{const}$  deb qabul qilamiz.

Gidroliz natijasida hosil bo'lgan  $CH_3COOH$  ning miqdorini

$$K_{kucn.} = \frac{[CH_3COO^-] \cdot [H^+]}{[CH_3COOH]} \text{ dan } [CH_3COOH] = \frac{[CH_3COO^-] \cdot [H^+]}{K_{kucn.}}$$

ekanligini bilamiz. Bu qiymatlarni  $K_{gidr.}$  - ifodasiga kuysak:

$$K_{\text{eu}\partial p} = \frac{[CH_3COO^-] \cdot [H^+] \cdot [OH^-]}{K_{\text{кисл.}} [CH_3COOH^-] \cdot 1} = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{K_{\text{кисл.}}}; \text{ kelib chiqadi.}$$

Agar  $[H^+] * [OH^-] = K_w$  suvning ion ko‘paytmasi ekanligini esga olsak:

$$K_{\text{eu}\partial p} = \frac{K_w}{K_{\text{кисл.}}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{K_{\text{кисл.}}} \text{ kelib chiqadi.}$$

Xuddi shu singari 2 - tur va 3- turdagи tuzlar uchun  $K_{\text{gidr}}$  - ifodasini keltirib chiqarish mumkin. Shunga asosan:

- kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo‘lgan tuzning gidroliz doimiysi:

$$K_{\text{eu}\partial p} = \frac{K_w}{K_{\text{acoc.}}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{K_{\text{acoc.}}}$$

kuchsiz asos va kuchsiz kislotadagi hosil bo‘lgan tuzning gidroliz doimiysi:

$$K_{\text{eu}\partial p} = \frac{K_w}{K_{\text{acoc.}} \cdot K_{\text{кисл.}}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{K_{\text{acoc.}} \cdot K_{\text{кисл.}}} ; \text{ bo‘ladi.}$$

Tuzlarning gidroliz darajasi - h va  $K_{\text{gidr}}$  o‘rtasida quyidagi bog‘lanish bor:

$$K_{\text{eu}\partial p} = C_{\text{myz}} \cdot \frac{h^2}{1-h^2} \text{ bo‘lib, } h << 1 \text{ bo‘lgani uchun}$$

$$K_{\text{gidr}} = h^2 * C \text{ tuz bo‘ladi va } h = \sqrt{K_{\text{eu}\partial p} / C_{\text{myz}}}$$

Xar qanday kimyoviy jarayon kabi gidroliz jarayoni ham  $\Delta G$  gidr,  $\Delta H_{\text{gidr}}$  va  $\Delta S_{\text{gidr}}$  bilan xarakterlanadi. Gidroliz jarayoni o‘z-o‘zidan borishi uchun  $\Delta G_{\text{gidr}} < 0$  shart bajarilishi shart va bu parametrlar o‘zaro quyidagicha bog‘langan:

$$\Delta G_{\text{gidr}} = \Delta H_{\text{gidr}} - T \Delta S_{\text{gidr}}.$$

Gidroliz qaytar reaksiya bo‘lgani uchun muvozanat xolati yuzaga keladi. Shu sababli  $K_{\text{muv}} = K_{\text{gidr}}$  bo‘lgani uchun  $\Delta G_{\text{gidr}} = -RT \ln K_{\text{gidr}}$  bo‘ladi.

$\Delta G_{\text{gidr}}$ ,  $\Delta H_{\text{gidr}}$ ,  $\Delta S$ , T va  $K_{\text{gidr}}$  o‘rtasidagi o‘zviy bog‘lanish shunday ko‘rinishga ega:

$$K_{\text{eu}\partial p} = e^{\frac{\Delta G_{\text{eu}\partial p}}{RT}} = e^{\frac{\Delta T_{\text{eu}\partial p}}{RT}} \cdot e^{\frac{\Delta S}{R}}$$

Bu ifoda tuzning gidrolizlanishi uning tabiatiga va eritmaning

temperaturasiga bog‘liq ekanligining isbotidir.


Gidrolizlanish jarayonlari faqatgina tuzlar ishtirokida boribgina qolmasdan, ba’zi (metallarning nitridlari, metallmaslarning birikmalari  $\text{PF}_3$ ,  $\text{PF}_5$ ,  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{PCl}_5$  oddiy va murakkab efirlar, yog‘lar, kraxmal vassellyuloza kabi) moddalar ham gidrolizlanadi. Bularning ayrimlari tuzlarning gidrolizi singari borsa, ayrimlari xech qanday elektrolit xossasiga ega bo‘lmagan moddalarini hosil qiladi.

Metallarning nitridlari  $\text{Li}_3\text{N}$ ,  $\text{K}_3\text{N}$ ,  $\text{AlN}$  suvli eritmada:




mexanizmda gidrolizlanib, hidroksid va ammiakni hosil qiladi.

Agar  $\text{PCl}_5$  ni suv bilan ta’sirlasak:



reaksiya tenglamasi bo‘yicha gidrolizlanib, tegishli kislotalarni hosil qiladi.

Agar murakkab efirlarni kislotali sharoitda ( $\text{pH} < 7$ ) suv bilan ta’sirlasak:



tegishli karbon kislota va spirt hosil bo‘ladi. Bu reaksiya tegishli muhitda olib borilsa, tegishli kislotaning tuzi (sovun) va spirt hosil bo‘ladi:



Bu gidroliz amaliy jihatdan oxirigacha boradigan jarayon bo‘lib, yog‘lardansovun olish shu gidroliz reaksiyasiga asoslangan.

Kraxmal va sellyulozalardan keng miqyosda foydalanish uchun ularni xar xil sharoitda gidrolizlanadi:



hosil bo‘lgan glyukozani bijg‘itish bilan etil spirti ishlab chiqariladi. Xuddi shuningdek, turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari (qand, lavlagi, shakar qamish) dan shakar ishlab chiqarish jarayonlari ham gidroliz jarayonlaridan foydalanishga asoslangan. Yog‘ochni qayta ishlash sanoati hamda qishloq xo‘jaligi chiqindilarini gidrolizlab, etil spirt, glyukoza va boshqa moddalar olinadi. Yog‘larning gidrolizi,sovun pishirish va glitserin olishning asosini tashkil etadi. Gidroliz asosida ichimlik va sanoat suvlari tozalanadi.

*Gidroliz jarayoni qaytar jarayon hisoblanadi.* Gidrolizni to‘liq amalga oshirish yoki to‘xtatib qo‘yish mumkin. Buning uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim.



***Gidroliz oldini olish uchun:***

1. Eritma konsentratsiyasini oshirish.
2. Eritmani sovutish.
3. Gidroliz natijasida hosil bo‘lishi kutilayotgan muhitni oldindan tayyorlash kerak.

***Gidrolizni tezlatish uchun:***


1. Eritmani suyultirish kerak.
2. Eritmani qizdirish kerak.
3. Gidroliz natijasida hosil bo‘lishi kerak bo‘lgan muhitga teskari muhit yaratish lozim.

## Eritma pH iga bog‘liq ravishda indikatorlar rangining o‘zgarishi

Nomi	Muhitlardagi indikatorlar rangi			
	Kislotali $[H^+] > [OH^-]$ pH < 7	Neytral $[H^+] = [OH^-]$ pH = 7	Ishqoriy $[OH^-] > [H^+]$ pH > 7	
<i>Lakmus</i>	<b>Qizil</b>		<b>Binafsha</b>	<b>Ko‘k</b>
<i>Fenolftaien</i>	Rangsiz		Rangsiz	Pushti
<i>Metiloranj</i>	<b>Pushti</b>		<b>Zarg‘aldoq</b>	<b>sariq</b>
Eritma reaksiysi				
	Kuchli kislotali	Kuchsiz kislotali	Neytral	Kuchsiz ishqoriy
	←		↓	→
	Muhit kislotaligi oshadi			
	Muhit asosligi oshadi			

## KISLOTA, ASOS VA TUZLARNING SUVDA ERUVCHANLIK JADVALI

KATIONLAR	Anionlar														Kuchli asoslar (ishqoriy)
	I <sup>-</sup>	Br <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	SO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>	F <sup>-</sup>	HCOO <sup>-</sup>	CH <sub>3</sub> COO <sup>-</sup>	PO <sub>4</sub> <sup>3-</sup>	CO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>	S <sup>2-</sup>	SiO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>	OH <sup>-</sup>	
K <sup>+</sup>	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E
Na <sup>+</sup>	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E
Ba <sup>2+</sup>	E	E	E	E	Q	Q	O	E	E	Q	Q	E	Q	E	E
Ca <sup>2+</sup>	E	E	E	E	O	Q	Q	E	E	Q	Q	Q	Q	O	
NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	E	–	E
Ag <sup>+</sup>	Q	Q	Q	E	O	Q	E	E	O	Q	Q	Q	Q	Q	–
Mg <sup>2+</sup>	E	E	E	E	E	O	Q	E	E	Q	O	–	Q	Q	
Pb <sup>2+</sup>	Q	O	O	E	Q	Q	E	E	Q	Q	Q	Q	Q	Q	
Mn <sup>2+</sup>	E	E	E	E	E	Q	E	E	E	Q	Q	Q	Q	Q	
Fe <sup>2+</sup>	E	E	E	E	E	Q	O	E	E	Q	Q	Q	Q	Q	
Zn <sup>2+</sup>	E	E	E	E	E	O	E	E	E	Q	Q	Q	Q	Q	
Cu <sup>2+</sup>	–	E	E	E	E	Q	E	E	E	Q	Q	Q	Q	Q	
Hg <sup>2+</sup>	Q	O	E	E	E	–	E	E	Q	–	Q	–	–	–	
Al <sup>3+</sup>	E	E	E	E	E	–	O	E	E	Q	–	–	–	Q	
Cr <sup>3+</sup>	E	E	E	E	E	–	E	E	E	Q	–	–	–	Q	
Fe <sup>3+</sup>	–	E	E	E	E	–	O	E	E	Q	–	–	–	Q	
H <sup>+</sup>	E	E	E	E	E	E	E	E	E	O	O	Q	E		
Kuchli kislotalar					Kuchsiz kislotalar										



E – Erigan modda (100 gr suvda 1gr dan ortiq)  
 O – Oz eriydigan modda (100 gr suvda 0,1 gr dan 1 gr gacha)  
 Q – Qiyin eriydigan modda (100 gr suvda 0,1 gr dan kamroq)  
 – – Bunday modda suv ta’sirida parchalanadi yoki suvda mavjud emas.

### Metallarning kuchlanish qatori

Li, Rb, K, Ba, Sr, Ca, Na, Mg, Al, Be, Mn, Zn, Cr, Ga, Fe, Cd, Ti, In, Co, Ni, Sn, Pb, H, Sb, Bi, Cu, Hg, Ag, Pd, Pt, Au

## **I.2. Ta’limni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning mohiyati va muammolari**

Mustaqil O’zbekistonimizda uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilinishi, yangi ta’lim standartlari asosida ta’lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga hozirgi kunda o’qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko’p jihatdan o’qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog’liqdir. Shunday ekan, sog’lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzlusiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligidagi, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liqdir [1,2]. O’qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig’ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o’qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o’qituvchi mustaqillik g’oyasiga e’tiqodi, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma’lumoti, ya’ni o’z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo’lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o’rganishi va baholay olishi, pedagogik ta’sir ko’rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim.

Mustaqil O’zbekistonning kelajagi bo’lgan sog’lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o’qituvchi o’quvchi va talabaning shakllanish jarayonini zo’r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim [3]. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo’lishi lozim. Shundagina o’qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogik mahoratni egallay oladi.

O’zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish xodimlarning yangi avlodini yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil moslashish ko’nikmalari hamda istiqbol

rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan [4]. Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga alohida ahamiyat beriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan maktabning har bir o'qituvchisi, akademik litsey va kasb-hunar kolleji, oliy maktab muallimining yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning umumiy nazariy va amaliy asoslarini qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi.

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimidan qat'iy nazar, o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekan, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalari yig'indisi bo'lган zarur pedagogik minimumlarni egallagan, yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi shart.

### **I.3. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning nazariy va pedagogik asoslari**

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lif sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muxabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'lik holda fanga 1872-yilda kirib kelgan va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so`zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma'nosini anglatadi [5]. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarini) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo) ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: PT - bu o'qituvchining o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rilib turibdiki, PT tushunchasini izoxlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va xokazo.

O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va “o'qituvchi - pedagogik jarayon – o'quvchi (talaba)“ funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida ko'rildi.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo'ladi.

Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko'chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlarini tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini kimyo kursining kimyoning asosiy qonunlari bo'limida qo'llash metodikasi va x.k.

PT o'qitish jarayoning o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni ko'rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yohud PT o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir.

Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi. Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida PT o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi [6].

Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan “o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi“ ekanligi e'tirof etiladi [6].

Ob'ektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamma qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi. Rus olimasi N.F.Talizina [6]texnologiyani “belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat“ deb tushuntiradi. Shuningdek, olma zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: “o'qitish texnologiyasi - bu o'quv

jarayonini nima real tavsiflasa o'sha, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa o'sha".

PT ni fan sifatida e'tirof etish K.K.Selevko tomonidan [7] ham ma'qullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida xam, ta'limda qo'llaniladigan usullar, printsiplar va reguliyativlar sifatida ham, real o'itish jarayoni sifatida ham mavjuddir". Olimning ta'kidlashicha "pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlataladi:

1) Umumpedagogik daraja: umumpedagogik texnologiya ma'lum mintaqada, o'quv yurtida, ma'lum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2) Xususiy metodik daraja: xususiy predmetli PT "xususiy metodika" ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig'indisi sifatida bir predmet, sinf, o'qituvchi doirasida qo'llaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

3) Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya o'zida o'quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar yechimini o'zida mujassamlashtiradi (alohida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustakil ishslash texnologiyasi va boshqa).

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinish turibdiki, PT belgilangan boshlang'ich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritsa uning bir yoqlamaligi ko'zga yaqqol tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V.P. Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida "PT - bu o'qituvchi maxoratiga bog'liq bo'limgan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir" deb ta'rifladi [8]. Bu ta'rif mazmunidan muhim ilmiy printsiplarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT o'quvchi(talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta maxorat talab etmaydi;

- yakuniy natija, albatta , kafolatlanadi.

PT tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, PTni amaliyatga joriy etishga bo'lган urinishlar natijasini ifodalaydi.

Qator yillar davomida PT nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lмаган holda o'rganilib kelindi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg'or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko'tarila olmay asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lган “Dasturli ta'lim“ (Программированное обучение) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi “Shatalovchilik xarakat“ ini eslash kifoya [6].

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy saloxiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi PTning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi PT pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu soxadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

PT mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum “material“ bilan ish ko'radi. Biroq, PT inson onggi bilan bog'lik bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lмаган pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga hos tomonlari-tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

PT boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuski, bu jarayon hozirgi ta'lim tizimida juda qiyin kechyapti, haqiqiy kompyuterli PT o'zining ilmiy ishlanmasini kutyapti: "kompyuterlarning shu kundagi qo'llanishi - ekstensivlik xolos: an'anaviy o'quv qurslari shunchaki ekran monitoriga joylashtirilyapti". Shu yerda PT va axborot texnologiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo'ladi. Keyingi vaqtarda ba'zi bir olimlar (ayniqsa informatika fani vakillari) PTni axborotlashtirishga qo'shish yoki tenglashtirish (ba'zan ustun qo'yish)ni yoqlamoqdalar. Bu urinishlar agar xato bo'lmasa, shubhasiz "podadan oldin chang chiqarishdir". O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy (ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab) voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy "burilish", uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda ta'limda axborot texnologiyasi - bu "o'quvchi - kompyuter" o'rtasidagi muloqotdir [9].

Axborotli texnologiya PTning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallahgan zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida qo'llanila boshlandi. Kelajakda iqtisodiy bo'ronlar ortda qolib o'quv yurtlari dasturli "mashina" bilan yetarli darajada ta'minlanadi. Shundagina axborotli texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funktsiyalarini to'liq bajarishi mumkin.

#### **I.4. Asosiy pedagogik texnologiya usullari**

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar o’zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlashtirish g’oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu pedagogik texnologiyalar markazida o’z imkoniyatini yuksak darajada amaliyotga qo’llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab tahlil qila oladigan, mo’ljalni ongli ravishda mustaqil, to’g’ri olaoladigan shaxsni shakllantirish g’oyasi turadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy jihatni har bir shaxsda mavjud bo’lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobjiy hislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish sanaladi [10,11]. Bu o’rinda ta’lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhit sanaladi. Shu sababli ta’lim mazmuni insonparvarlikka yo’naltirilgan gumanistik g’oya va me’yorlarni o’zida mujassamlashtirgan bo’lishi lozim.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo’lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g’amxo’rlik, o’quvchilar shaxsini hurmat qilish, e’zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. An’anaviy ta’limda o’qituvchi ta’lim jarayonining sub’ekti, o’quvchilar pedagogik jarayonining ob’ekti deb qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o’quvchi o’z o’quv faoliyatining sub’ekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona ta’lim jarayonining ikkita sub’ekti hamkorlikda o’quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

Ushbu pedagogik texnologiyada ta’lim tizimi markazida barkamol inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g’oyasi muhim o’rin tutadi. Bu g’oya qay darajada amalga oshirilganligi ta’lim jarayonining asosiy natijasi, o’quv muassasasi pedagogik jamoasi mehnatining sifatiga berilgan baho asosida aniqlanadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o'quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxsga bo'lган munosabat hisoblanadi.

Pedagogning shaxsga bo'lган insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevishi, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchining yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'lim oluvchilarni to'g'ridan to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim jarayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash, huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai-nazarini erkin bayon etish va bolalar huquqlari Konvensiyasiga amal qilishni taqozo etadi.

O'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihat o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlash emas, balki yo'naltirish, o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniiga [12]:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- o'quvchilarni muvaffaqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
- mustaqil faoliyatning tashkil etilishi;

- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi. Ta'lim tizimida yangi munosabatlarning vujudga kelishi shaxsga tafovutlab yondoshishni talab etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini rivojlantirish;
- ta'limda psixologo-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatlari, aqliy faoliyatining xususiyatlarini aniqlash;
- o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;
- shaxs rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

1. Ushbu pedagogik texnologiya o'qituvchi va o'quvchilar munosabatini tashkil etishning asosi sanalsa, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish boshqa texnologiyani qo'llashni talab etadi. Shu sababli har bir mashg'ulotda bitta texnologiyadan emas, balki o'quvchilar bilim olishining har bir bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli texnologiyadan foydalilanildi. Shunday qilib, bitta mashg'ulotda bir nechta pedagogik texnologiya uyg'unlashtiriladi.

2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda ijtimoiy normalarga mos ongli intizomning vujudga kelishi, motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirishga bo'lgan etiyojining ortib borishi, ko'zlangan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo'lishi bilan qimmatlidir.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, uzlucksiz ta'limda pedagogik faoliyati ko'rsatayotgan o'qituvchilarni avval umumiy didaktik darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish lozim.

Agar o'qituvchilar pedagogik texnologiyaning konseptual asoslari, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash prinsiplari, o'ziga hos xususiyatlari, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni

o'zlashtirmagan bo'lsa, pedagogik texnologiyadan ko'zlangan natijaga erishish qiyin kechadi.

Mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan o'qituvchilar o'zlari ma'sul bo'lган fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan xususiy metodik darajada muvaffaqiyatli foydalanishi mumkin [12-14].

Xususiy metodik darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar jumlasiga didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari [12-16] kiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritilgan har qanday o'zgarish o'quvchilarning bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. O'quvchi va talabalar pedagogik texnologiyalarning talablariga moslashishi uchun, ya'ni muayyan ko'nikmalarni egallashlari uchun ta'lim-tarbiya jarayonida dastlab pedagogik texnologiyalardan lokal darajada foydalanish kerak.

Lokal darajada qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar o'z samarasini bergandan so'ng, xususiy metodik darajada foydalanishga o'tish maqsadga muvofiq.

Shuni qayd etish kerakki, an'anaviy ta'limda o'z hukmronligini saqlab qolayotgan sub'ekt-ob'ekt munosabatlariga barham berish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali sub'ekt-sub'ekt munosabatlarga o'tish muayyan vaqt va o'quvchi hamda talabalar tomonidan mazkur munosabatda ishtirok etish uchun zarur bo'lган ko'nikmalarni egallashlariga imkon yaratish lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga lokal darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar jumlasiga "BBB", "Erkin xat", "Venn diagrammasi", "6x6x6", "Insert", "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishslash", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i" va h.k kiradi.

Mazkur texnologiyalar mashg'ulotlarning bir qismi, ya'ni o'quvchi va talabalarning o'tgan mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini aniqlash, o'quvchilarning o'quv motivlarini faollashtirish yoki mavzuni umumlashtirish va hulosa yasashda foydalanish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllariga ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishi, mustaqil ta'lim, o'quv-ishlab chiqarish, o'quv va pedagogik amaliyotlar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllaridan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Ma'ruzada o'rganilishi belgilangan mavzuning o'quv dasturida tutgan o'rni, maqsadi, vazifalariga ko'ra: kirish, muammoli, mavzuli, umumlashtiruvchi ma'ruzalarga bo'linadi. Shunga ko'ra unda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar turlicha bo'lishi mumkin.

An'anaviy texnologiyaga asoslangan ma'ruza hozirgi paytgacha qisqa vaqtda katta hajmdagi ilmiy-nazariy ma'lumotlarni keng auditoriyadagi ko'p sonli tahsil oluvchilarga yetkazish imkoniyatini mavjudligi bilan o'z qimmatini yo'qotmagan.

Mazkur mashg'ulot turining asosiy kamchiligi tahsil oluvchilarga axborotning tayyor holida yetkazilishi, o'quvchi va talabalarning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etilishi sanaladi. Lekin, ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fundamental fanlarni o'qitishda ma'ruza juda qo'l keladi, faqat yuqorida qayd etilgan kamchiliklarga barham berish uchun ma'ruzaning borishiga muayyan o'zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi.

Hulosa qilib aytganda, ma'ruza mashg'ulotida lokal darajada insert, klaster, aqliy hujum, bumerang, atamalar zanjiri va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Mualliflar tomondan [17] kimyo darslarida o'quvchilarni ijodiy faollashtirish texnologiyasi bo'yicha qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bunda o'quvchilarning individual rivojlanish sharti sifatida o'qitishni individuallashtirilgan pedagogik yordam ko'rsatish zarurligi keltirilgan. Ushbu maqolada noorganik kimyoning ayrim tushunchalarini o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kimyo fanidan qishloq xo`jaligiga oid dars topshiriqlarini berish bilan o`quvchilar bilimini oshirish, ularni mustaqil ishlashga o`rgatish bo`yicha metodik tavsiyalar keltirilgan bo`lib, ularning fanni o`rganishdagi effektivligi bo`yicha ma'lumotlar keltirilgan [18].

O`quvchilarni bilimga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini shakllantiruvchi omillardan biri hisoblangan didaktik o`yinlardan kimyo darslarida foydalanish bo`yicha metodik tavsiyalar keltirilgan [19]. Shuningdek, mashg`ulotlarda foydalanish bo`yicha 12 ta o`yin turi keltirilgan va ularni qo`llash elementlari keltirilgan.

Muallif tomondan [20] mavzuni o`qitishda “Uzilmas zanjir”, “Yosh mutaxassis”, “Ekspert”, “50x50”, bahs-munozara, guruhlarga bo`lib ishslash usullarini qo`llash bo`yicha dars ishlanmasini keltirilgan bo`lib, o`quvchilar bilimini oshirishda ularning effektivligining yuqori bo`lishi keltirib o`tilgan.

Adabiyotlarda keltirilgan va ilmiy tadqiqot ishimga taalluqli bo`lganyangi pedagogik texnologiya usullarining ayrimlariga to`xtalib o`tamiz.

*Debatlar*— bu qarama-qarshi nuqtai - nazarlarning o`zaro bahsi (to`qnashuvi) bo`lib, u o`quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni o`rganish va o`zлari haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o`rgatadi. Debatlar Qadimgi Gretsiyada yaratilgan bo`lib, ular demokratiyaning muhim elementi edi. Afinada fuqarolar taqdim etilayotgan qonunlarning afzal tomonlari va kamchiliklari haqida tortishar edilar, masalani yaxshi tushunish uchun uni turli tomondan tahlil qilib, baxslashish usullariga o`rganar edilar.

Debatlar bu jamoa o`yini bo`lib, bunda jamoaning har bir a`zosi o`zining burch va majburiyatlariga ega bo`ladi, kim g`alabaga erishgani esa debat yakunida jamoalarining asoslashlari, faktlari, chalg`ituvchi savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki hakam belgilab beradi.

O`quvchilar bilan debat o`tkazganda 3 ta printsipga amal qilish kerak:

1. Debatlarning ko`p narsaga o`rgatishi (Chunki debat o`tkazishdagi maqsad faqat g`alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallahdir).

2. Sofdillik va vijdonlilik majburiyati (Bu printsip debatning o'zagi bo'lib, noto'g'ri asoslash va chalg'ituvchi savollarga javob berishda mantiqan xatoga yo'l qo'yishning oldini oladi),

3. O'zaro hurmatni saqlash. (Ishtirokchilar bir - birlarining shaxsiyatiga tegmasligi shart, boshqa bir o'quvchi aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo'lsa, uning obro'sini to'kish maqsadga muvofiq emas. Chunki debat g'oyalar va g'oyalarning to'qnashuvidan iborat),

Debatda 2 ta jamoa ishtirok etadi.

1 — jamoa: Tasdiqlovchi tomoni sifatida

2 —jamoa: Qarama - qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida.

Jamoalardan so'zga chiquvchilar spikerlar deyiladi.

$T_1, T_2, T_3$  — tasdiqlovchi tomon spikerlari

$K_1, K_2, K_3$  — qarama-qarshi tomon spikerlari.

Debatlarda quyidagi mahoratlar zarur bo'ladi:

1. Tanqidiy tafakkur ( tanqidiy fikr yuritish)

2. Tadqiqiy malakalar

3. Tashkiliy malakalar

4. Quloq solish va yozma qayd qilish malakasi.

O'tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi, tugallangan fikr shaklida bo'lishi kerak.

*Tasdiqlovchi tomon* spikerlari hakamlarni o'z nuqtai-nazarlarining to'g'rilingiga ishontirishga xarakat qiladilar.

*Inkor etuvchi tomon* spikerlari tasdiqlovchi tomon nuqtai-nazarining noto'g'ri ekanligiga hakamlarni ishontirishga xarakat qilishlari kerak. (Mustamlakachilik urushlarining asosiy sababi geografik kashfiyotlar emas, balki dunyoda hukmronlikka intilish g'oyasidir yoki geografik kashfiyotlarsiz xam mustamlakachilik urushlari bor edi.)

*Asoslash.* Asoslash orqali har ikkala tomon hakamlari o'z nuqtai-nazari to'g'ri ekanligiga ishontirishi kerak. Dalillar sust yoki kuchli, ishonarli bo'lishi mumkin.

Shuningdek, debat ishtirokchilari o’z nuqtai-nazarlarini mustahkamlovchi dalillarni (sitatalar, faktlar, statistik ma’lumotlarni) taqdim qilishlari lozim.

*Chalg’ituvchi savollar.* Ko’pchilik debatlarda har bir ishtirokchiga opponent jamoa spikerining savollariga javob berish imkoniyati beriladi. Bir jamoa spikerining savoli va boshqa jamoa spikerining javobi «chalg’ituvchi savolga tutish» deyiladi.

*O’yin va mashqlar* - Mashqlar guruhning barcha a’zolarini birlashtirish va ulardan bir-birini qo’llab-quvvatlaydigan kichik jamoalar yaratish uchun kerak bo’ladi. Xarakatli mashqlar bir necha shartlarga javob berishi kerak:

1. Seminar vazifalariga mos kelishi;
2. Ishtirokchilarning yoshi, bir - birini tanish darajasi, o’qitishning interfaol usullari doirasida oldingi tajribalarini hisobga olinishi kerak;
3. Inson hulqini aniqlab beruvchi uchta ko’rsatkich - his-hayajon, fikrlash va psixomotorikani faollashtirish uchun kerak.

Mashqlarni o’tkazish yuzasidan ko’rsatmalar:

1. Mashqlar qisqa (10 minutgacha) bo’lishi shart;
2. Unda guruhning barcha a’zolari ishtirok etishi shart;
3. Guruhning katta-kichikligini hisobga olish shart.

*Rotatsiya metodi asosida toifali qarashlar* - Muammo va qator savollarni muhokama qilish asosida yechimni topishdagi samarali usuldir. Bunda quyidagicha amallar qilinadi:

1. Qog’oz varaqlariga raqamlangan savollar yozilib, sinf devorlariga ilib qo’yiladi.
2. Har bir guruh uchun alohida savol qog’ozga yozilib, sinf devorlariga ilib qo’yiladi. 4-5 daqiqa vaqt davomida guruh ishtirokchilari berilgan savolga aniq javoblar izlab, topilgan javoblarni qog’ozga yozadilar.
3. O’qituvchi ishorasiga qarab guruh ishtirokchilari keyingi qog’oz turgan joyga surilib, qog’ozda yozilgan savolni o’qib, savollar va qo’shimcha izohlar yozadilar.
4. Guruhlar to birinchi, ularga savol tariqasida yozib berilgan qog’oz yoniga qaytib kelgunlariga qadar, yuqoridagi tartibda joylarini almashtiraveradilar.

5. Guruh a'zolari, boshqa ishtirokchilar tomonidan yozib qoldirilgan izohlarga, savollarga javob berishadi.

“6x6x6” metodi- Ushbu metod yordamida bir vaqtning o’zida 36 nafar ta’lim oluvchini muayyan faoliyatga jalgan etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo’lgan 6 ta guruh o’qituvchi tomonidan o’rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladilar. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o’qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo’ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o’z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan hulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

6x6x6 metodi guruhlarning har bir a’zosini faollik, o’z fikrini ifoda etish, guruhdoshlarining fikrlarini tinglay olish, o’rtaga tashlanayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o’z fikrini himoya qilishga o’rgatadi. Eng muhim mashg’ulot ishtirokchilarining har biri qiska vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar ta’lim oluvchidan iborat bo’lgan bir necha guruhlarda ham qo’llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o’rtasida 6x6x6 metodi qo’llanilganda vaqtini ko’paytirishga to’g’ri keladi. Chunki bunday mashg’ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham bir muncha ko’p vaqt talab etiladi. So’z yuritilayotgan metod qo’llanayotgan mashg’ulotlarda guruhlar bir yoki bir necha mavzu (muammo) ni muhokama qilishlari mumkin.

“6x6x6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o’qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofik shakllantira olish layoqatiga ega bo’lishni talab etadi. Guruxlarning to’g’ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to’g’ri hal etilmassligiga sabab bo’lishi mumkin. “6x6x6” metodi yordamida mashg’ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul ko'yib chiqadi.
2. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruxga bo'linadilar. Ta'lim oluvchilarni guruahlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob'ekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiaqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir ta'lim oluvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.
3. Ta'lim oluvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruahlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Munozara uchun ma'lum vaqt belgilanadi. Munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinnarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.
5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bitta vakil bo'lishi inobatga olinadi. Ta'lim oluvchilar o'z o'rinnarini almashtirib olganlaridan so'ng aniq belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar.

Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan hulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy hulosaga keladilar.

«*Aqliy hujum*» metodi - Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tamonlama fikr yuritish, shuningdek o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum

ko'nikma hamda malakalarni hosil kilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ihxtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalalar quyidagilardir:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta'lif oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir ta'lif oluvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi xamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya) larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida ta'lif oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya) lari baholanib boriladigan bo'lsa, ta'lif oluvchilar o'z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lif oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlar jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarining o'zlarining erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.

2. G'oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish.

3. Muammo (yoki mavzu) ni aniqlash.
4. Mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lган shartlarni belgilash. Shartlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:
  - A) Ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi;
  - B) Ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari uchun qulay muhit yaratiladi.
  - V) G'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi;
  - G) Boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan hulosalarga kelish kabi xarakatlarning ta'lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishish.

5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish.

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan kulish, ularga nisbatan kinoyali sharxlar bildirilishiga yo'l qo'ymaslik.

9. Ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik.

*"Fikrlarning shiddatli xujumi"* metodi- Mazkur metod E.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. "Fikrlarning shiddatli xujumi" metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda ta'lim oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha boskichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1. bosqich. Ruhiy jihatdan bir - biriga yaqin bo'lган ta'lim oluvchilarni o'zida biriktirgan hamda son jihatidan teng bo'lган kichik guruhlarni

shakllantirish.

2. bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3. bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarni ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4. bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5. bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularni to'g'rilik darajasi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6. bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona hulosaga kelish.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan “Fikriy xujum” metodlarini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'naliishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatl qo'llash mumkin. Ushbu metod ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, vaqt ni iqtisod qilish, har bir ta'lim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi.

*Rolli hamda ishbop o'yinlar* - Zamonaviy ta'limni tashkil etishda rolli xamda ishbop o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalg etishda rolli xamda ishbop o'yinlar o'ziga hos o'rinn tutadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash nixoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilgandir.

O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oralig'ini qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator

psixologik xususiyatlар ham namoyon bo’ladiki, buning oqibatida xar o’quvchi o’zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o’zi egallagan o’rinni barqarorlashtiradi, o’z – o’zini boshqarish ko’nikmalarini hosil qiladi. O’yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko’nikma va malakalarga aylanishini ta’minlabgina qolmay, balki o’quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

Pedagog va psixolog olimlar - D.N.Uznadze, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.A.Shamakova, G.K.Selevko, P.Ya.Galperin, I.Olloyorov, A.A.Verbitskiy va boshqalar o’yinga asoslanuvchi faoliyatning mohiyati, ularning o’ziga hos xususiyatlari, imkoniyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar [5,7]. Ayni vaqtida biz bu borada zarur nazariy va amaliy ma’lumotlarga egamiz.

O’yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko’zda tutiladi:

- 1) ta’limiy (didaktik) maqsad;
- 2) tarbiyaviy maqsad;
- 3) faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi maqsad;
- 4) ijtimoiy maqsad.

G.K.Selevkoning fikricha, o’yin psixopedagogik jarayon sanalib, u quyidagi tuzilmaga ega bo’ladi [7]:

- 1) o’ynash uchun olingan rollar yoki o’yin turi;
- 2) tanlangan rollarni ijro etish vositasi bo’lgan o’yinli xarakatlar;
- 3) muayyan predmet (jism)larni o’yinning shartli moddiy vositasi sifatida tanlash;
- 4) o’yin ishtirokchilari o’rtasidagi real munosabatlaro mazmuni;
- 5) shartli ravishda yaratilgan sujet (o’yin sujeti).

*Grafikli organayzerlar* (tashkil etuvchi) - fikriy jarayonlarni ko’rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Uning usul va vositalari ma’lumotlarni qanday taqdim qilinishiga qarab 3 turga bo’linadi:

1. Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo’lib chiqish, o’rganilayotgan tushunchalar (voqealarni va hoidisalar, mavzular) o’rtasidagi aloqa va o’zaro

bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, Venna diagrammasi.

3. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usul va vositalari: "Nima uchun?", "Baliq skeleti", "Piramida", "Nilufar guli" sxemalari, "Qanday?" ierarhik diagrammasi, "Kaskad" tarkibiy-mantiqiy sxema.

Bu usul va vositalarning har bir turining ahamiyati va xususiyatlari bilan alohida tanishib chiqsak:

1. *Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqealari va hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali, klaster*

*Klaster* (*Klaster-tutam, bog'lam*) – axborot haritasini tuzish yo'li, barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. Bu metod bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O'quvchilar klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlar"da "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

#### Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to'htatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugagunicha yozishni to'htatmang. Agar aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Klaster metodini o'qituvchi talaba(o'quvchi)larga dars davomida qo'llaganida uni 3 bosqichda o'tkazish tavsiya qilinadi ya'ni:

- 1-bosqich. Qog'oz yoki doskaning o'rtasiga mavzuga oid tayanch, asosiy so'z yoki gapni yozib qo'ying.
- 2-bosqich. O'quvchilardan muammo bilan bog'liq hayoliga kelgan barcha so'z va gaplarni yozishni iltimos qiling. Izoh: berilgan vaqt mobaynida o'quvchilarning hayollariga kelgan fikrlarning barchasini yozishlariga imkon bering.
- 3-bosqich. G'oyalar yozib olingach, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang.

*Toifalash jadvali* - hususiyat va munosabatlarni muhimligini nomoyon qiluvchi (umumiyl) alomat. Bu jadvaldan dars davomida foydalaninsh quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

- ajratilgan alomatlar asosida olingen alomatlarni birlashtirishni ta'minlaydi.
- tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar. G'oyalarni, ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin. Keyin ish natijalarining taqdimoti bo'ladi.

## **I.5. Ta’lim o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi**

Ma’lumki mamlakatimiz ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi kunning dolzARB masalaridan biri xisoblanadi.

“Avvalo fandagi yangilik nima?”, “Fandagi innovatsiya nima?” degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so‘zlar o‘rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so‘nggi yutuqlar, bilimlar, usullar xisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo‘llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Noorganik kimyo fanini o‘qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagi innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda.

## **Ta’lim o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi**

<b>O‘QUV MASHG‘ULOTLARI</b>		
1. Ma’ruza mashg‘ulotlari ta’lim texnologiyasi. 2. Seminar mashg‘ulotlari ta’lim texnologiyasi. 3. Amaliy mashg‘ulotlar ta’lim texnologiyasi. 4. Mustaqil ta’lim -stadi ta’lim texnologiyasi. Loyiha ta’lim texnologiyasi	o‘rov. -o‘yin. 7. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. ozma va og‘zaki davra -ketligi	1. Klaster.  7. “Nima uchun” 8. “Qanday?”

Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ularga o‘quv jarayonidagi yangi shakldagi intreaktiv

usullar kiradi. O'quvchilar dars jarayonida mavzuni o'zlashtirish uchun doira shaklida o'tiradilar.

Kimyoviy ta'lif tizimiga "har kim har kimga o'rgatadi" texnologiyasini kiritish mumkin. Darsni shunday tashkil etish kerakki, o'qituvchi o'qitsin, o'quvchilar ham bir-birlarini o'qitsin. Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilardan ham saboq oladi, ularni o'z hamkasblari deb biladi. O'quvchilar o'qituvchining hamkasblari va safdoshlaridir. Bilimga qiziqish axborotning mazmunigagina bog'liq bo'lib qolmay, o'quvchilarning dars jarayonida faol qatnashishlariga ham bog'liqdir. O'quvchilarning o'zlari haqiqatni izlash jarayoniga qanchalik faol aralashsalar, ta'lifning samaradorligi shunchalik oshadi. Mustaqil o'rganishsiz o'qitish yo'q. Shuning uchun deyarli har bir darsda o'qitish va mustaqil o'rganish uyg'unligiga erishish zarurdir.


Bu usul o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ular o'zlarini o'qituvchidek his qilishadi. Uyga oldindan mavzu berib yuboriladi. Tayyorlanib kelgan talaba shu mavzuni gapirib tushuntirib beradi. Qo'lidan kelgancha tajriba ham qilib ko'rsatadi. U o'rtoqlariga mavzu yuzasidan tushunchalarni beradi. Boshqa o'quvchi shu mavzuga doir tajriba ko'rsatadi.

Bu texnologiya bugungi kunda rivojlangan horijiy mamlakatlarning jumladan, Amerika Qo'shma shtatlari, Germaniya, Yaponiya va Rossiya davlatlarining oliy ta'lif muassasalarida ta'lif va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda keng qo'llanilmoqda.

### **Asosiy tushunchalar**

**Keys-stadi** (inglizcha *sase* - to'plam, aniq vaziyat, *stadi* - ta'lif) - keysda bayon qilingan va ta'lif oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta'lif uslubidir*.

## Keys-stadining maktablari



**Keys-stadi** - ta'lism, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lism maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan *ta'lim texnologiyasidir*

### Keysning pedagogik pasporti

- 1) Pedagogik annotatsiya
- 2) Keys
- 3) Talabaga uslubiy ko'rsatmalar
- 4) O'qituvchi keysalogning keysni hal etish varianti

### Pedagogik annotatsiya

**Berilgan keysning maqsadi:** O'quvchilarning "Tuzlar gidrolizi" mavzusini bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'tilgan mavzularga oid bilimlarini tekshirib ko'rishdan iborat.

### **Kutilayotgan natijalar:**

- O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalari oshadi;
- Tuzlar gidrolizi mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarga ega bo‘ladilar;
- O‘quvchilar faoliyatini mavzuni mustaqil va ijodiy o‘zlashtirishga yo‘llash, bilish faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish;
- Asosiy g‘oyani ajratish, mantiqiy fikr yuritish, fikrni bayon etish va asoslash ko‘nikmalari, nutq va muloqotga kirishishga erishish;
- O‘quvchilarning kimyo (tuzlar gidrolizi to`g‘risida) bilimlarini o‘zlashtirish samaradorligini orttirish.

### **Keysni muvaffaqiyatli bajarish uchun talaba quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:**

- Tuzlar gidrolizi eritma muhiti haqida tasavvurga ega;
- Namoyish eksperimentidan foydalanish malaka va ko‘nikmalari shakllangan;
- Namoyish eksperimenti orqali ochiladigan fundamental asosiy tushunchalar shakllangan.

## **II.Tajribaviy qism.**

### **II.1. Modulli ta'lim texnologiyasi**

**Darsning ta'limiylar maqsadi:** Gidroliz, solvoliz, kation, anion, ham kation ham anion bo'yicha gidroliz, birligida gidroliz, gidrolizlanish darjasini, gidrolizning kimyo sanoati ishlab chiqarish, kundalik hayot va biologik amaliy ahamiyati haqida ma'lumot berish.

